

O'zbekistonda 58-Xalqaro kimyo olimpiadasiga start berildi

// 11 July 2026 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zbekistonda-58-xalqaro-kimyo-olimpiadasiga-start-berildi>



O'zbekistonda Markaziy Osiyo tarixida ilk bor kimyo fani bo'yicha eng nufuzli xalqaro intellektual musobaqalardan biri — 58-Xalqaro kimyo olimpiadasining (International Chemistry Olympiad - IChO 2026) tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.



Unda "O'zkimyosanoat" AJ vakillari ham ishtirok etdilar.

19-iyulga qadar davom etadigan mazkur olimpiada dunyoning 90 dan ortiq mamlakatidan tashrif buyurgan eng iqtidorli maktab o'quvchilarini bir maydonga jamladi. Ishtirokchilar olimpiada doirasida kimyo fanidan nazariy va amaliy bilimlari, tahliliy fikrlashi hamda ilmiy salohiyatini namoyon etadilar.



Xalqaro kimyo olimpiadasi dunyodagi eng nufuzli fan olimpiadalaridan biri bo'lib, STEM ta'limi yo'nalishidagi eng yirik va obro'li xalqaro platformalardan sanaladi. Mazkur olimpiada iqtidorli

yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy hamkorlikni mustahkamlash va kelajak olimlarini kashf etishga xizmat qiladi.

Ochilish marosimida so'zga chiqqanlar O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim sohasini rivojlantirish, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga alohida to'xtaldilar.



Shuningdek, mamlakatimizda ilk bor o'tkazilayotgan mazkur nufuzli olimpiada O'zbekistonning xalqaro ilmiy-ta'lim maydonidagi nufuzini yanada mustahkamlashi ta'kidlandi.



2025-yil Birlashgan Arab Amirliklarida bo'lib o'tgan 57-Xalqaro kimyo olimpiadasida yurtimiz vakillari tarixiy natija qayd etib, 2 ta oltin va 2 ta kumush medalni qo'lga kiritdi hamda **95 davlat orasida umumjamoa hisobida 6-o'rinni egalladi.**



58-Xalqaro kimyo olimpiadasining O'zbekistonda o'tkazilishi mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiyalar va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasi bo'lib, O'zbekistonning xalqaro ilmiy hamjamiyatlardagi mavqeini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.



